

## O'ZBEK TILIDA SO'Z TURKUMLARI ANIQLANISHIDA KORPUS YONDASHUVI

*Normamatova Shaxzoda*

*O'zMU Xorijiy til va adabiyoti (ingliz) yo'nalishi*

*1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek tilidagi so'z turkumlarini aniqlashda korpus lingvistikasi yondashuvining imkoniyatlari va afzalliklari yoritiladi. Shuningdek, an'anaviy grammatik tahlil metodlari bilan korpus asosidagi avtomatik tahlil usullari solishtiriladi.

**Kalit so'zlar:** morfologiya, grammatika, korpus lingvistikasi, sintaksis, sintetik shakl, analitik shakl

So'z turkumlari masalasi tilshunoslikdagi eng qadimiy va muhim yo'nalishlardan biridir. Har qanday tilning grammatik tuzilmasini, uning ichki qonuniyatlarini o'rganishda so'z turkumlarini aniqlash birlamchi ahamiyatga ega. Chunki so'zlar til birliklari sifatida gapda turli sintaktik rollarni bajaradi, morfologik jihatdan o'zgaradi va semantik vazifalarni bajaradi. So'z turkumlari ana shu funksiyalarning umumlashtirilgan tizimi sifatida tilshunoslikda ajralib turadi. So'z turkumlarini aniqlash orqali biz tilning grammatik qurilishini, sintaksis va morfologiyaning o'zaro bog'liqligini, leksik birliklarning kategoriyalarga bo'linishini tushunamiz.

So'zlamni turli qismlarga bo'lish va so'z shakllarini yasash va ulami biriktirish tartibi va gaplami tuzish qoidalari haqidagi tilshunoslik fanining muhim bo'limi grammatika (grekcha gramma — harf, tike — fan) deb ataladi. Grammatika ikki qismidan iborat: morfologiya va sintaksis. Morfologiya (grekcha marphe — shakl, logos — ta'lilot) — so'zlamning grammatik guruhlari, so'z shaklining xususiyatlari, grammatik shakl, grammatik ma'no va grammatik kategoriyalami o'rganadi [1]. So'z turkumlari — bu tilning grammatik xususiyatlari asosida ajratilgan yirik so'z guruhlaridir. Har bir turkumga kiruvchi so'zlar o'ziga xos paradigmalarga ega bo'lib, sintaktik vazifalari bilan boshqalaridan farqlanadi. So'z turkumlarini aniqlash tilning turli birliklarini tahlil qilishda muhim yordam beradi. Boshqacha qilib aytganda, so'zlarni tasniflash tildagi lug'atni grammatik jihatdan katta guruhlarga bo'lish jarayonidir. Lug'atdagi so'zlarning grammatik xususiyatlari inobatga olinib, ularning tegishli turkumlari aniqlanadi.

So'zning u yoki bu turkumga mansubligini ko'rsatuvchi, so'zning ma'lum bir grammatik shakl orqali ifodalanadigan ma'nosi grammatik ma'no hisoblanadi; qalam, suv, tosh, olma, bog', uy so'zlari bir grammatik ma'noga mansub so'zlar hisoblanadi. So'zning ma'lum bir grammatik ma'no ifodalovchi shakli so'zning grammatik formasi (shakli)

deyiladi. Grammatik ma’noni ifodalovchi morfema grammatik ( morfologik) ko‘rsatkich ham deyiladi. Masalan, ko‘plikning grammatik ko‘rsatkichi-lar; bosh kelishik va bo‘lishlilik ko‘rsatkichi yo‘q (nol ko‘rsatkichli).

Grammatik shakl (so‘z formasi) ning uch xil turi mavjud [2]:

1. Sintetik shakl (affikslar yordamida hosil bo‘luvchi):

Daraxtni, daraxtda, daraxtdan, ishlayapman, ishlayapsan, ishlayapti

2. Analitik shakl (yordamchi so‘zlar orqali hosil bo‘luvchi):

ukam uchun, park tomon, o‘qib ko‘r, o‘qib chiq. Yordamchi so‘z vositasida yasaluvchi forma analitik forma deyiladi.

3. Juft va takroriy shakl: qozon-tovoq, yaxshi-yomon juft formalari umumlashtirish ma’nosini; baland-baland, qator-qator, kula-kula kabilar ko‘plik, takror, ta’kid ma’nosini ifodalaydi.

Hozirgi kun grammatikalarida so‘zami turkumlarga ajratishda

asosan **besh belgi** [3]:

- so‘zning leksik-grammatik m a’nosi;
- so‘zning grammatik shakli;
- so‘zning sintaktik vazifalari;
- so‘z yasovchi morflar;
- so‘zning distributsiyasidan foydalaniladi.

So‘z turkumlarining gapda bajaradigan vazifasiga to’xtaladigan bo’lsak, Har bir so‘z turkumi o‘ziga xos morfologik xususiyatlarga ega bo‘lishi bilan birga, ularning gapdagi sintaktik funksiyalari ham turlicha bo‘ladi. Masalan, otlar o‘zbek tilida subyekt (egalik), obyekt, aniqlovchi va hatto hol sifatida ham ishlatilishi mumkin. Bunda otning sintaktik vazifasi kontekstga, gapdagi o‘rniga va unga qo‘shilgan qo‘shimchalar orqali ifodalangan grammatik ma’noga bog‘liq bo‘ladi. Bu holatlar boshqa tillarda esa biroz farq qiladi. Masalan, ingliz tilida otlarning sintaktik imkoniyatlari o‘zbek tilidagiga qaraganda chegaralangan. Ingliz tilida otlar asosan subject (egalik) va object (to‘ldiruvchi) vazifalarida ishlatiladi:

"The boy plays football." (Subyekt)

"I saw the boy." (Obyekt)

Sifatlar esa, o‘zbek tilida asosan aniqlovchi vazifasida qo‘llanadi: "yashil daraxt", "zo‘r o‘yin", "baland bino" kabi.

So‘z turkumlarini aniqlashda an’anaviy yondashuvlar asosan morfologik va semantik mezonlarga tayanadi. O‘zbek tilshunosligida so‘z turkumlari 12 ta asosiy turkumga bo‘linadi: ot, fe’l, sifat, son, olmosh, ravish, predlog (yordamchi so‘z), ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, undov, modal va taqlid so‘zlar [4]. Ushbu bo‘linish grammatik qoidalar, so‘zning leksik-ma’noviy xususiyatlari va gapdagi funksiyasiga asoslanadi. An’anaviy yondashuvlarda so‘zlarning tashqi ko‘rinishi (ya’ni qo‘shimchalari,

affikslari) va ularning gapdagi o‘rni asosiy omil sifatida olinadi. Bu yondashuv o‘z vaqtida juda samarali bo‘lgan bo‘lsa-da, zamonaviy tahlillarda bir qator cheklov larga ega ekani ayon bo‘lib qolmoqda. Eng katta muammolardan biri – omonim so‘zlar. Masalan, "ot" so‘zi ayrim kontekstda fe'l bo‘lsa, boshqasida ot so‘z turkumi sifatida ishlatilishi mumkin. Bunday holatlarda faqat morfologik yoki semantik belgilarga tayangan holda so‘z turkumini to‘g‘ri aniqlash qiyin bo‘ladi. Yana bir cheklov – so‘zlarning kontekstual moslashuvchanligi. Ba’zi so‘zlar turli kontekstlarda turli vazifani bajaradi. Masalan, "tez" so‘zi sifat sifatida ("tez mashina") ham, ravish sifatida ("tez yugurdi") ham ishlatiladi. An’anaviy yondashuvlar bunday holatlarni yetarli darajada hisobga olmaydi, natijada noto‘g‘ri tasniflar paydo bo‘ladi. Shuningdek, an’anaviy yondashuvlar katta hajmdagi matnlar ustida ishslashda ancha samarasizdir. Har bir so‘zni qo‘lda tahlil qilish ko‘p vaqt va kuch talab etadi. Bu esa avtomatlashtirilgan til tahlili imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli, tilshunoslikda so‘z turkumlarini aniqlashda yangi, kompyuter texnologiyalariga asoslangan – korpus lingvistikasi yondashuvi tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda.

Korpus lingvistikasi an’anaviy yondashuvlarda uchraydigan bir qancha cheklov larni bartaraf etadi. Masalan, omonim so‘zlar kontekstual tahlil yordamida to‘g‘ri aniqlanishi mumkin. Shuningdek, sun’iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishslash (NLP) vositalari orqali millionlab so‘zlardan iborat matnlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish imkoniyati mavjud. Bu esa lingvistik tadqiqotlarning tezligi va aniqligini sezilarli darajada oshiradi.

O‘zbek tilshunosligida ham korpus lingvistikasi so‘nggi yillarda faol rivojlanmoqda. “O‘zbek tilining milliy korpusi” loyihasi, turli gazeta, adabiy matnlar asosida tuzilgan kichik korpuslar so‘zlarni avtomatik belgilash, ularni turkumlarga ajratish, sintaktik strukturalarni tahlil qilish kabi sohalarda foydalanilmoqda. Bularning barchasi O‘zbek tilining raqamli tahlil imkoniyatlarini kengaytirib, uni zamonaviy lingvistik texnologiyalar bilan integratsiyalash imkonini bermoqda.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, So‘z turkumlari tilning grammatick tizimida muhim o‘rin tutadi. Ularni to‘g‘ri aniqlash va tasniflash, til strukturasi va uning amaliy qo‘llanilishi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishga xizmat qiladi. An’anaviy tilshunoslikda so‘z turkumlarini aniqlash asosan morfologik va semantik mezonlarga asoslangan bo‘lsa, bunday yondashuvlar ba’zi hollarda cheklov larga ega: omonim so‘zlar, kontekstga bog‘liq turkumlar, grammatick moslashuvchan birliklar bular jumlasidandir.

O‘zbek tilida so‘z turkumlarini aniqlashda korpus yondashuvi nafaqat an’anaviy yondashuvlardagi kamchiliklarni bartaraf etadi, balki tilni raqamli shaklda chuqur o‘rganish, tilni qayta ishslash kabi zamonaviy ilmiy va amaliy ehtiyojlarga ham xizmat qiladi. Shu sababli, o‘zbek tilshunosligida korpus lingvistikasi asosidagi yondashuvlarni keng joriy etish dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Sharq nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri. T., 2010.
2. Xolmanova Z.T. Tilshunoslikka kirish. T., 2007.
3. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. Yangi asr avlodi nashriyoti. T., 2009.
4. Azim Hojiyev. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. Fan nashriyoti. T., 2010